

SUDEX



O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining tegishli buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Unga muvofiq, **davlat sud ekspertiza muassasasi** - sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan muassasa, shuningdek, tegishli davlat organlari, vazirliklar va idoralar tizimidagi ixtisoslashtirilgan sud ekspertizasi bo'linmalaridir.

Sud ekspertizasi tadqiqoti – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish holatlarini aniqlashga va sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berishga, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan hamda natijasi bo'yicha mutaxassis fikri taqdim etilishiga qaratilgan faoliyat.

Sud eksperti – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida jalb qilingan jismoniy shaxs.

Mutaxassis fikri – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikri.

Sud eksperti (sud ekspertlari)ning xulosasi (xulosa) – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va tadqiqotlar olib borilishini va ularning natijasini aks ettiradigan yozma yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron shakldagi hujjat.

Sud eksperti tadqiqotlarni o'tkazishga Markaz rahbarining topshiriqnomasi bilan birga sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim), so'rov yoxud murojaat hamda tushgan barcha ish materiallari olingan vaqtdan boshlab kirishadi.

Markaz rahbari, laboratoriya (bo'lim) va hududiy bo'lim mudirlari tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotning hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga qarab, kam obyektli va murakkab bo'lmagan tadqiqotlar o'tkazishga doir materiallar bo'yicha 10 kun doirasida, ko'p obyektli yoki murakkab tadqiqotlar o'tkazishga doir materiallar bo'yicha 20 kun doirasida, ko'p obyektlar va murakkab tadqiqotlar o'tkazishga doir materiallar bo'yicha 30 kun doirasida muddatlar belgilanishi mumkin.

Sud eksperti o'ziga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallarini tadqiq etishni tegishli sohadagi bilimlarga amal qilgan holda, protsessual qonun talablariga qat'iy muvofiq ravishda xolisona va to'liq amalga oshiradi.

Sud eksperti xulosasi 3 qismdan iborat bo'ladi: kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi qism).

Sud ekspertining quyidagi huquqlari mavjud:

- sud ekspertisasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur yoki ko'chirma nusxalar olish;
- sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tadqiqot obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;
- ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;
- agar ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holdatarjimon xizmatidan foydalanish;
- uning xulosasi yoki ko'rsatuvi protsess ishtirokchilari tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar kiritish;
- agar uning huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.



***X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazining***

Jizzax viloyat bo'limi